ANALOGIYA USULIDA HOSIL QILINGAN OKKOZIONAL SO‘ZLAR

Akramova Shahnozaxon Shavkatjon qizi.
Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani 22-sonli maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23194284

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili leksikasida analogiya yo‘li bilan hosil qilingan so‘zlar tahlilga tortilgan, hamda badiiy matnlarda uchraydigan okkozionalizmlarnig yasalish xususiyatlari borasida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: analogiya, okkozionalizm, affiks, semantik, yasovchi asos, so’z yasalishi, antonimiya.

Okkozionalizmning paydo bo‘lishida faqatgina affikslar qatnashmaydi, yasash asosining ma’nosi ham ishtirok etadi. “Demak, har bir yasalishda ikki elementning munosabati bor-yasashga asos bo‘lgan so‘z va yasalib chiqqan so‘z (yasashga asos bo‘lgan element mustaqil holda ayrim so‘z , lekin yasalmaga asos bo‘lgach, undan yangi so‘z yasalgach – so‘zning qismi). Yasalmadagi bu ikki element tashqi va ichki tomonlardan o‘zaro munosabatda bo‘ladi”, -deydi A.G‘ulomov . Shunday ekan, so‘z yasalishida ishtirok etadigan affikslarning yasash asosiga tanlab qo‘yilishi natijasida yangi so‘zlar hosil bo‘ladi. Yasash asosiga so‘z yasovchi affikslarning g‘ayritabiiy qo‘shilishi esa okkozionalizmni keltirib chiqaradi. [1 B.1-2.]

Okkozional so‘zlarni hosil qilishning yana bir usuli bu- yasovchi asosni boshqa so‘zga almashtirish orqali hosil qilingan yangi okkozional so‘zdir. Bu usul tilshunoslikda “Analogiya” usuli deb nomlanadi.

“**Analogiya**” (yunoncha. Analogia- muvofiqlik, aynanlik, o‘xshashlik) – degan ma’nolarni anglatadi.

Tilshunoslikda- yasovchi asosni almashtirish orqali okkozional so‘z hosil qilish.

Masalan, “Gulzor” so‘zidagi –zor affikisini qo‘llagan holda asosini boshqa so‘zga almashtirib turli yangi so‘zlar hosil qilish mumkin.

(tokzor, mevazor, tutzor, uzumzor va h.k.)

Ijodkor o‘z asarida okkozional so‘zlarni hosil qilib qo‘llashidan maqsad shuki, matnning badiiy-estetik ta’sirini oshirmoq, matnda hech kimda va hech qayerda uchramagan so‘zdan yangilik yasamoq va shu orqali o‘quvchilarga so‘zning ta’sir kuchini orttirmoqdir.

Yasovchi asosni almashtirish orqali analogiya yo‘li bilan okkazional so‘z yasashning quyidagi ko‘rinishlarini farqlash mumkin.

1. Matnda, gapda qo‘llangan muayyan bir yasalma andozasiga muvofiq yasovchi asosni almashtirish orqali g‘ayriodatiy so‘z yasaladi: Cholning zardasi qaynadi.

- E, o‘zing qanaqa doktorsan, qo‘lim og‘riydi desam "qarilikniki", oyog‘im desam "keksalikniki", suyagim desam "chollikniki", ha boshqa gap bilmaysanmi?! (M.Zayniddinova).

Bobokolonlarimiz o‘shalar bo‘lsa, toshga o‘yilgan ayol momokalonimizmi? (P.Qodirov).

Bolazor, mevazor, tolzor ko‘chalar (Sh.Rahmon).[2.B.65-66.]

Misollardagi chollik, momokalon, dilxona, xayolxon, bolazor yasalmalari gapda yonma-yon kelgan yasama so‘zlar andozasida yasovchi asosni almashtirish orqali yaratilganligini fahmlash qiyin emas. Almashtirilgan yasovchi asoslar o‘zaro turlicha munosabatda bo‘lishi mumkin.

Almashtirilgan yasovchi asoslar ma’lum leksik-semantik guruhga yoki ma’nodosh so‘zlar sirasiga mansub bo‘lishi ham mumkin.

Masalan:

1) - Usta, bu yer sartaroshlikmi, buruntaroshlikmi? - dedim jahlim chiqib (M.Muhamedov):

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

sartaroshlik so‘zi tarkibiy qismlari ma’nosini “jonlantirish” ham bor. Qo‘shiqtaroshlik (“Xalq so‘zi”): qiyos: asartaroshlik (“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”) qiyoslang: haykaltaroshlik. Har bir tosh – shoirkush, har bir tosh – she’rkush. Dunyo toshlar tegib chatnagan sag‘ar (G‘ulom Mirzo). Bu yurakning vatandoshlari, havodoshlari, tuproqdoshlari (E.Shukur).

2) Yasovchi asos antonimik munosabatdagi morfema (so‘z) bilan almashtiriladi. Bunda ko‘pincha gapda ikki xil tushuncha yoki hodisani qarama-qarshi qo‘yish orqali fikr ifodalanadi va shunga muvofiq sintaktik tuzilma yoki uyushiq bo‘lakli gap qurilishi talab qilinadi: Alamzada bo‘lmay, xursandzada bo‘lsinmi? – deb kuldi Mamatqulov (X. Sultonov); Albatta, bu ahvolda chorvachilik zararxona bo‘lmay foydaxona bo‘larmidi... (E.Rasulov. “Zararxona”“Mushtum”);.. shaharga qatnovchilar “Soybozor” da avtobus poylab o‘tirishib, “Bu Soybozoremas, Oftobzor” deb yuborishibdi (“Oftobguzar” // “Mushtum”), Hamdam “bu pivaxonaemas, mish-mishxona...” dedi (T.Malik);

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilining boy imkoniyatlari, ma’noning naqadar serqirraligi o‘zbek ijodkorlarining badiiy asarlarida yozuvchining so‘z qo‘llash bo‘yicha mahoratida aks etadi. Badiiy matnlarda uchraydigan ijodkorning individual nutqiga xos bo‘lgan, lug‘at tarkibidan joy olmaydigan, yangilik bo‘yog‘i doim saqlanib turuvchi hamda o‘zining g‘ayritabiiyligi bilan o‘quvchini diqqat – e’tiborini jalb qiluvchi va badiiy-estetik ta’siri kuchli bo‘lgan okkozional so‘zlar yaratuvchisi tomonidan turli ussullarda hosil qilinishi mumkin. Biz yuqorida ushbu usullardan biri, ya’ni analogiya yo‘li bilan okkozionalizmlarning hosil bo‘lishini ko‘rib chiqdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. R.A.Suvonova, S.Allamurodova Okkozionalizmlarning so’z turkumlariga xoslanishi. Maqola; zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar № 1, 2023. B.1-2.
2. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши; Филол. Фанлари номзоди…дис.- Т.1998. -Б. 65-66
3. Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик оккозионализмлар ва уларнинг бадиий-естетик хусусиятлари. Фил. Фанлари номзоди. Дис. Т; 2007. –Б. 100-101.
4. Mirtojiyev M. Okkazional ma’no // O‘zbek tilshunosligi masalalari. ToshDU Ilmiy ishlar to‘p. − T., 1973. Chirchiq, −B. 90-98.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.